



Bank haqida ma'lumot

Yangilangan sana: Tue, Iyul, 3, 2018

To'liq rasmiy nomlanishi: O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki

Qisqartirilgan rasmiy nomlanishi: Xalq banki

Yuqori turuvchi organlar nomi:

1) [O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi](#) [1]

2) [O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi](#) [2]

3) [O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki](#) [3]

Bank haqida: Aktsiyadorlik tijorat Xalq banki O'zbekistonning qadimiy banklaridan biri hisoblanadi. Toshkentda birlamchi jamg'arma kassalar 1875-yilda tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 1995-yil 4-oktabrdagi Qaroriga asosan «O'zjamg'armabank» Davlat-tijorat Xalq banki etib qayta tashkil etildi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4720-sonli Farmoniga asosan bank nomi "Aksiyadorlik tijorat Xalq banki" nomiga o'zgartirildi.

Ayni paytda, Hukumatning doimiy ravishda qo'llab-quvvatlashi tufayli Xalq bankining salohiyati yanada oshib bormoqda.

Mustaqillik yillarida Xalq banki mamlakat iqtisodiyotining pul-kredit sohasidagi islohotlar jarayonida Hukumatning moliya agenti sifatida faoliyat olib borib, zimmasiga yuklangan mas'uliyatli vazifalarni doimiy ravishda ado etib kelmoqda. Bank o'z salohiyatini barqarorlashtirish, aholining ishonchini qozonish, mamlakat bank xizmatlari bozoridagi o'z mavqei va rolini mustahkamlash uchun barcha sa'y-harakatlarini safarbar etmoqda.

Bugungi kunda, Xalq banki O'zbekiston bank tizimining muhim bo'g'ini hisoblanadi. Uning 197 hududiy va tuman (shahar) filiallari, 33 ta mini-bank va 1 000 dan ortiq jamg'arma va maxsus kassalari iqtisodiyotning real sektoriga - kichik biznes sub'yektlari va aholiga keng qamrovli bank xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda.

Xalq bankining asosiy vazifalaridan biri O'zbekistonning keksa fuqarolarini nafaqalar bilan o'z vaqtida ta'minlashdan iborat. O'zbekiston Respublikasi «Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuniga asosan fuqarolarning davlat pensiya ta'minotiga qo'shimcha tariqasida jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi yo'lga qo'yilgan. Xalq banki yagona, o'z filiallarini bir-biri bilan bog'lovchi va ytarlicha himoyalovchi elektron baza yaratish uchun ko'p ishlarni amalga oshirdi

Xalq banki jamoasi doimiy ravishda o'z oldiga yangi strategik maqsad va vazifalarni qo'yib keladi. Ayni paytda mazkur qadam mijozlarga xizmat ko'rsatishning sifat jihatidan yangi darajasiga chiqishga, raqobatbardosh pozitsiyaga erishishga, investitsion jozibadorlikni ta'minlashga, boshqaruv va texnologik jarayonlarni modernizatsiyalash hisobiga moliya xizmatlar bozorida qator ko'rsatkichlar

bo'yicha peshqadam pozitsiyani egallashga xizmat qilmoqda

Links

[1] <http://www.gov.uz/>

[2] <http://www.mf.uz/>

[3] <http://www.cbu.uz/>